

## **GIM fakulteti 1-kurs talabalarining bir kuni**

Yangi o'quv yili boshlanishi bilan 1-kurs talabalari munosib qarshi olindi va professor-o'qituvchilar bilan uchrashuvlar tashkil etilmoqda. Jumladan, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, texnika fanlari doktori, "Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash" kafedrasi professori Sh.U. Yo'Idoshev GIM fakulteti "Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash" yo'nalishi 1-kurs talabalari bilan 05.09.2019 kuni uchrashdi.

Mazkur uchrashuv sermazmun va savol-javoblarga boy bo'lган "Agrar sohada qo'llaniladigan mashinalar resursidan samarali foydalanish: muammo va yechimlar" mavzusidagi uchrashuvda sohaga yangi kirib kelayotgan yoshlarga o'z maslahatlarini berdilar va o'z hayot tajribalari bilan o'rtoqlashdilar. Uchrashuv so'ngida talabalarga ustoz sohamiz va davlatimiz rivojiga o'z salohiyatlari bilan hissa qo'sha oladigan yetuk malakali kadrlar bo'lib yetishishlari uchun doim o'qish va izlanishda bo'lishlarini mehnat insonni ulug'lashini ta'kidladilar. Darsdan so'ng talabalarga "JONAJON O'ZBEKISTON MANGU BO'L OMON" shiori ostida tarixiy muzeylarimizga sayohat uyushtirildi, xususan 101-guruh talabalari guruh rahbari S.Xolova boshchiligidagi Amir Temur muzeyida bo'lib buyuk bobokalonimizning olib borgan siyosati va faoliyati yuzasidan ekskursiya uyushtirildi. Zeroki, har bir yosh avlod o'z tarixini va ajdodlarini bilishi zarurdir.



"Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash" kafedrasi stajyor -o'qituvchi Sarvinoz Xolova axboroti  
Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov